

ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA INFLATSIYA JARAYONLARI TAHLILI

Yuldasheva Nurguloy Sarvar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inflatsiya tushunchasi har tomonlama va chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Unda inflyatsiyaning asosiy turlari, yuzaga kelish sabablari hamda iqtisodiyotga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlari keng yoritiladi. Shuningdek, inflatsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlari va amaliy usullari muhokama etiladi. Tadqiqot doirasida inflatsiya darajasi O'zbekiston misolida hamda jahon mamlakatlari tajribasi asosida qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Inflatsiya, iqtisodiy hodisalar, pul massasi, inflatsion jarayon, inflatsiya darajasi, pulning qadrsizlanishi, davlat iqtisodiyoti, xo'jalik aylanmasi, Fillips egri chizig'i, fiskal siyosat.

Abstract:

This article provides a comprehensive and in-depth scientific analysis of the concept of inflation. It examines the main types of inflation, the causes of its emergence, as well as its positive and negative impacts on the economy. Furthermore, effective mechanisms and practical methods for combating inflation are discussed. Within the framework of the research, the inflation rate is comparatively analyzed based on the example of Uzbekistan and the experience of countries around the world.

Keywords: Inflation, economic phenomena, money supply, inflationary process, inflation rate, currency depreciation, state economy, economic turnover, Phillips curve, fiscal policy.



Аннотация:

В данной статье всесторонне и глубоко анализируется понятие инфляции. Рассматриваются основные виды инфляции, причины её возникновения, а также её положительное и отрицательное влияние на экономику. Кроме того, обсуждаются эффективные механизмы и практические методы борьбы с инфляцией. В рамках исследования уровень инфляции анализируется на примере Узбекистана и в сравнении с опытом стран мира.

Ключевые слова:

Инфляция, экономические явления, денежная масса, инфляционный процесс, уровень инфляции, обесценивание денег, государственная экономика, хозяйственный оборот, кривая Филлипса, фискальная политика.

Hozirgi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan davrda barcha jahon mamlakatlari o'z iqtisodiyotiga katta e'tibor qaratmoqda. Davlat iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bu – inflatsiyadir.

Inflatsiya – bu tovarlar xizmatlar narx darajasining umumiy va doimiy o'sib borishi bilan tavsiflanadigan iqtisodiy hodisadir.

Inflatsiya (lot. inflatio – shishish, bo'rtish, ko'tarilish) pulning qadrsizlanishi – tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo'jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog'oz pullar miqdorining ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi. Ushbu jarayon iqtisodiy o'sishning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lsa-da, haddan tashqari yuqori yoki barqaror bo'lmagan inflyatsiya darajasi iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda, inflyatsiya darajasining oshishi aholining xarid qobiliyatini pasaytiradi, ishlab chiqarish tannarxining ortishiga olib keladi va investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, "Inflatsiya" termini 1861-1865-yillarda Shimoliy Amerikada, so'ngra Fransiya va Germaniyada qo'llangan.

O'zbekiston iqtisodiyoti ham inflatsion jarayonlardan xoli emas. Hukumat tomonidan inflyatsiyani maqbul darajada ushlab turishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, turli davlatlar inflatsiyani boshqarishda har xil strategiya va mexanizmlarga tayanadi.

Davlat tajribasida inflatsiyaning bir nechta shakllari mavjud. Masalan, mo'tadil inflyatsiya (narxlar sekin ko'tariladi), tezlashuvchi inflyatsiya (narxlar tez o'sadi) va giperinflatsiya (narxlar juda tez va nazoratsiz oshib ketadi). Masalan, 1920-yillarda Germaniyada giperinflatsiya natijasida odamlar non sotib olish uchun butun chemadon pul olib yurishlariga to'g'ri kelgan. O'zbekistonda inflatsiya darajasi Markaziy bank tomonidan boshqarib boriladi.



O'zbekistonda inflatsiya darajasi 2019-2021-yillarda shunday ko'rsatkichlarni tashkil etgan bolsa, boshqa mamlakatlarda ham ancha sezilarli. Jumladan, 2022-yil yakunlariga ko'ra, Zimbabve dunyodagi eng yuqori inflatsiyaga ega davlatga aylandi. Afrikaning ushbu davlatida inflatsiya darajasi 243,8 foizni tashkil qilgan.

Shuningdek, bu ko'rsatkich bo'yicha yetakchilar qatorida Venesuela (234 foiz) va Livan (122 foiz) ham bor. Turkiya ro'yxatda oltinchi o'rinni egalladi (64,3 foiz). Yevropa davlatlaridan 17 ta davlat yuqori 50 talikka kirdi. Jumladan, Moldova (30,2 foiz), Ukraina (26,6 foiz), Vengriya (24,5 foiz), Litva (21,7 foiz) va Latviyada (20,8 foiz) inflatsiyaning yuqori ko'rsatkichi qayd etilgan.

Hech bir iqtisodiy hodisa o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi; u ma'lum ichki va tashqi omillar ta'siri natijasida shakllanadi. Xuddi shuningdek, inflatsiya jarayoni ham muayyan sabab va omillar ta'sirida vujudga keladi hamda rivojlanadi. Uni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

Talab inflatsiyasi — aholining tovar va xizmatlarga bo'lgan talabi taklifdan ortib ketishi natijasida narxlarning oshishi. Bu ko'pincha iqtisodiy o'sish davrida, ish haqlarining oshishi yoki kredit siyosatining yumshatilishi natijasida yuzaga keladi.

Taklif inflatsiyasi — ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi bilan bog'liq ravishda narxlarning ko'tarilishi. Masalan, energiya resurslari, xomashyo yoki ish haqi qimmatlashganda ishlab chiqaruvchilar bu xarajatlarni iste'molchilarga yuklaydi.

Pul massasining ko'payishi — markaziy bank yoki hukumat tomonidan iqtisodiyotga ortiqcha pul chiqarilishi natijasida pulning qadrsizlanishi yuz beradi. Mashhur iqtisodchi Milton Friedman ta'kidlaganidek, inflatsiya “har doim va hamma joyda monetar hodisa” hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy omillar — global iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar yoki geosiyosiy mojarolar natijasida narxlarning keskin oshishi mumkin. Masalan, 2022-yilda Ukrainadagi urush energiya va oziq-ovqat narxlarining butun dunyo bo'ylab oshishiga sabab bo'lgan.

Inflatsiyaning ta'siri uning darajasi va davomiyligiga bog'liq. Mo'tadil inflyatsiya iqtisodiy o'sishga yordam berishi mumkin, biroq yuqori va beqaror inflatsiya turli salbiy oqibatlarga olib keladi.

Jamg'armalar va investitsiyalar ham inflatsiya ta'sirida o'zgaradi. Yuqori inflatsiya sharoitida aholi va korxonalar uzoq muddatli jamg'armalardan ko'ra tezroq sarflashga moyil bo'ladi, bu esa investitsiya hajmining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Ishsizlik va iqtisodiy o'sishga ta'siri – yuqori inflatsiya biznes xarajatlarini oshirib, ishlab chiqarish pasayishiga va natijada ishsizlik ortishiga olib kelishi mumkin. Inflatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik Fillips egrisi orali tasvirlanadi. Fillips egri chizig'iga ko'ra, inflatsiya darajasini 1% ga pasaytirish uchun ishsizlikni 2% ga oshirish lozim bo'ladi.

Inflatsiyani boshqarish davlatning asosiy iqtisodiy vazifalaridan biridir. Turli mamlakatlar inflatsiyani jilovlash uchun quyidagi strategiyalardan foydalanadilar:

Pul-kredit siyosati — markaziy bank foiz stavkalarini oshirish orqali pul massasini qisqartiradi va inflatsiyani nazorat qiladi. Masalan, Federal Reserve va European Central Bank ushbu usuldan keng foydalanadi.

Quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, Xalqaro moliya institutlarining 2024-2025 -yillar jahondagi iqtisodiy o'sish yuzasidan prognozlari. Bunda, rivojlangan va bozor iqtisodiyotiga ega davlatlar va rivojlanayotgan Yevroosiyo davlatlarining prognozlari ko'rsatilgan.

2024-yil yakuni bo'yicha, mamlakat iqtisodiy o'sish kutilmalari oshishi Xalqaro moliya institutlari tomonidan ham e'tirof etilib, xususan, XVJ tomonidan 5,6 foiz va JB tomonidan 6 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Bunda, O'zbekiston uchun iqtisodiy o'sish ko'rsatkichini aprel oyidagi prognozloriga nisbatan 0,4 foiz bandga oshirgan.





Mamlakatlar	XVJ		JB	
	2024 kutilma	2025 prognoz	2024 kutilma	2025 prognoz
Jahon iqtisodiyoti	3,2	3,2	2,6	2,7
Rivojlangan va bozor iqtisodiyotiga ega davlatlar	1,8	1,8	1,5	1,7
AQSH	2,8	2,2	2,5	1,8
Yevropa Ittifoqi	0,8	1,2	0,7	1,4
Germaniya	0,0	0,8	-	-
Fransiya	1,1	1,1	-	-
Italiya	0,7	0,8	-	-
Ispaniya	2,9	2,1	-	-
Buyuk Britaniya	1,1	1,5	-	-
Kanada	1,3	2,4	-	-
Xitoy	4,8	4,5	4,8	4,1
Yaponiya	0,3	1,1	0,7	1,0
Rivojlanayotgan Yevroosiyo davlatlari	4,2	4,2	3,3	2,6
Rossiya Federatsiyasi	3,6	1,3	3,2	1,6
Turkiya	3,0	2,7	3,2	2,6
Qozog'iston	3,5	4,6	3,4	4,7
Qirg'iziston	6,5	5,0	5,8	4,5
Turkmaniston	2,3	2,3	-	-
Tojikiston	6,8	4,5	7,2	5,5
O'zbekiston	5,6	5,7	6,0	5,8

Tashqi iqtisodiy choralar — milliy valyutani barqarorlashtirish va import qaramligini kamaytirish orqali narxlar o'sishining oldi olinadi.

Inflatsiyani samarali boshqarish puxta o'ylangan iqtisodiy siyosat va markaziy bankning oqilona qarorlarini talab etadi. Noto'g'ri boshqaruv esa iqtisodiy beqarorlik va inqirozlarga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonda milliy valyuta – so'mning barqarorligini oshirish vazifalarini hal etish borasidagi dasturlardan biriga ham – “Inflatsiyaga qarshi baquvvat, puxta o'ylangan siyosat o'tkazish” kabi dastur mazmuni kiritilgan.

Inflatsiya har qanday mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri bo'lib, uning nazoratsiz o'sishi iqtisodiy barqarorlik va aholi

turmish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uni butunlay yo'q qilish emas, balki maqbul darajada ushlab turish muhimdir. Yuqori inflatsiya iqtisodiy barqarorlikka jiddiy zarar yetkazsa, me'yoriy inflatsiya iqtisodiy o'sishni ragbatlantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Sh. Shodmonov, U.V. G'ofurov Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik, 2-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan./ i.f.d., prof. Sh.Sh.Shodmonov u mumiytahriri ostida. – Toshkent: “LESSON PRESS”, 2021. – 23 b.
2. I.A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – Toshkent, O'zbekiston, 1995, 218-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “O'zbekiston iqtisodiyotida inflatsion jarayonlar”- www.cbu.uz
4. Sh.Sh. Shodmonov, U.V. G'ofurov Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik, 2-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan./ i.f.d., prof. Sh.Sh.Shodmonov u mumiytahriri ostida. – Toshkent: “LESSON PRESS”, 2021. – 475- b.
5. Kun.uz . Dunyoda inflatsiya darajasi eng yuqori bo'lgan davlatlar e'lon qilindi (Elektron resurs). – 2023. – kirish rejimi: <https://kun.uz> (sanasi: 22.02.2023)
6. Wikipedia, Inflatsiya darajasi. (Elektron resurs) . Kirish rejimi: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Inflyatsiya> (2025).